



## YUQUMLI KASALLIKLARI BILAN KASALLANGAN BEMORLARNING PSIXO-EMOTSIONAL XUSUSIYATLARI

*Maxamatova Nigora Bahrom qizi*

*Qosimova Layloxon Zafarjon qizi*

[layloxonqosimova08@gmail.com](mailto:layloxonqosimova08@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada yuqumli kasalliklar bilan og‘rigan bemorlarda kuzatiladigan psixo-emotsional xususiyatlar tahlil qilinadi. Kasallik jarayonida bemorlarda qo‘rquv, xavotir, depressiya, apatiya, asabiylik va ijtimoiy izolyatsiya kabi ruhiy holatlar shakllanishi ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, yuqumli kasalliklarning og‘irligi va davomiyligining bemorning psixologik holatiga ta‘siri yoritiladi. Tadqiqotda bemorlarning ruhiy holatini inobatga olgan holda kompleks davolash yondashuvi zarurligi asoslab beriladi. Psixologik qo‘llab-quvvatlash va samarali muloqotning davolash natijalarini yaxshilashdagi ahamiyati ta‘kidlanadi.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются психоэмоциональные особенности пациентов, страдающих инфекционными заболеваниями. В процессе болезни у пациентов формируются такие состояния, как страх, тревога, депрессия, апатия, раздражительность и чувство социальной изоляции. Также анализируется влияние тяжести и длительности инфекционного процесса на психическое состояние больных. Обосновывается необходимость комплексного подхода к лечению с учетом психологического состояния пациентов. Особое внимание уделяется роли психологической поддержки и эффективного общения в повышении эффективности лечения и ускорении процесса выздоровления.

**Kalit so‘zlar:** yuqumli kasalliklar, psixo-emotsional holat, qo‘rquv, xavotir, depressiya, apatiya, ijtimoiy izolyatsiya, psixologik qo‘llab-quvvatlash, bemor psixologiyasi, kompleks davolash



*Ключевые слово: инфекционные заболевания, психоэмоциональное состояние, страх, тревога, депрессия, апатия, социальная изоляция, психологическая поддержка, психология пациента, комплексное лечение.*

Asosiy psixo-emotsional xususiyatlar: Anksiyozlik (bezovtalik), doimiy xavotir, yurak urishi tezlashishi, uyqu buzilishi. Depressiv holat : Ishtaha yo‘qolishi, hayotga qiziqish pasayishi, ko‘zyosh to‘kish, umidsizlik. Irritativlik (asabiylik): Mayda sabablarga tez g‘azablanish, muomaladan qochish. Yolg‘izlik va ijtimoiy izolyatsiya: Oila va jamiyatdan chetlanish, ko‘mak yetishmasligi, Uyat va o‘zini ayblash hissi 1. Stress javobi va umumiy moslashuv sindromi (GAS). Kanadalik fiziolog Gans Selye tomonidan ishlab chiqilgan Umumiy moslashuv sindromi (General Adaptation Syndrome) konsepsiyasi bemor organizmining har qanday stress holatiga nisbatan uch bosqichli javobini ko‘rsatadi: 1. Alarm bosqichi – kasallik tashxisi eshutilgan ondagi shok, xavotir, yurak urishining tezlashuvi; 2. Qarshilik bosqichi – organizm kasallikka qarshi kurasha boshlaydi, immunitet faollashadi; 3. Charchash bosqichi – uzoq davom etgan kurash natijasida ruhiy va jismoniy toliqish, hissiy zaiflik yuzaga keladi. Mazkur model asosida bemorning ruhiy holatini kuzatish, uning qaysi bosqichda ekanini aniqlash, unga mos psixologik yondashuvni tanlash muhim ahamiyat kasb etadi. 2. Anksiyozlik va xavotirli holatlar: Yuqumli kasalliklar bemorda ko‘pincha vaziyatli anksiyozlikni (state anxiety) yuzaga keltiradi. Bemor doimiy ravishda o‘limdan, kasallikning og‘irlashishidan, yaqinlariga yuqtirish ehtimolidan xavotirlanadi. Bu holat psixosomatik simptomlar (yurak urishining tezlashuvi, bo‘g‘ilish hissi, nafas qisishi) bilan birga kechadi. Agar xavotir o‘z vaqtida bartaraf etilmasa, u bemorning umumiy holatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. 3. Depressiv reaksiyalar: Ko‘p hollarda yuqumli kasalliklar surunkali kechib, bemorni ijtimoiy hayotdan uzib qo‘yadi. Bu holat esa bemorda anhedoniya (hech narsadan zavqlanmaslik), umidsizlik, hayotiy maqsadlarning yo‘qolishi kabi depressiv simptomlarni yuzaga keltiradi. Kuchli depressiv epizodlar vaqtida bemor o‘zini ayblaydi, o‘zini jamiyat uchun ortiqcha deb hisoblaydi. Ba‘zan esa suicidal fikrlar (o‘z joniga qasd qilish xayollari) ham paydo bo‘lishi mumkin. 4. Stigmatizatsiya va ijtimoiy cheklanish: Yuqumli kasallikka



chalingan bemorlar, ayniqsa OITS, sil yoki teri kasalliklari bilan og‘riqlar, jamiyat tomonidan “yuqumli” deb belgilanadi. Bu esa ularning, ijtimoiy izolyatsiyalashishiga, stigmatizatsiyaga uchrashi, past o‘zini baholash holatiga tushishiga olib keladi. Amerikalik sotsiolog Erving Goffman bu holatni “ijtimoiy identitetning buzilishi” deb atagan. Bunday vaziyatda bemor o‘zini jamiyatdan chetda his qiladi, ruhiy tushkunlikka tushadi.

5. Kognitiv buzilishlar: Bemorlar kasallikni ko‘pincha kognitiv xatoliklar orqali noto‘g‘ri talqin qiladilar. Masalan: “Men bu kasallikdan hech qachon tuzalmayman” – bu katastrofik fikrlash, “Men boshqalarga xavfliman, ular mendan nafratlanadi” – bu umumlashtirish va salbiy filtr orqali dunyoni ko‘rish. Bu holat Aaron Beck tomonidan ishlab chiqilgan kognitiv terapiya modelida asosiy psixopatologik omil sifatida ko‘rsatilgan.

6. Psixologik yordamning roli- bunday psixo-emotsional muammolarni bartaraf etishda quyidagi yondashuvlar muhim: Kognitiv–xulq-atvor terapiyasi (CBT) – salbiy fikrlarni aniqlab, ularni real, ijobiy fikrlarga almashtirish orqali bemorning holatini yengillashtiradi. Empatik muloqot – bemorni ayblamasdan, uni tushunish, qabul qilish (Carl Rogersning shartsiz qabul qilish tamoyili). Guruh terapiyasi – boshqa o‘xshash kasallikka chalinganlar bilan muloqot orqali ijtimoiy qo‘llab-quvvatlovni ta‘minlaydi. Yuqumli kasalliklar inson psixikasiga turli darajada salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Bemorlar o‘zlarida xavotir, depressiya, ijtimoiy cheklanish va salbiy fikrlash kabi holatlarni boshdan kechiradilar. Shunday vaziyatda psixologik yondashuv va yordam nafaqat bemorning ruhiy barqarorligini tiklaydi, balki umumiy davolash jarayonining samaradorligini ham oshiradi. Shuning uchun zamonaviy tibbiy amaliyotda yuqumli kasalliklarni davolashda psixologik salomatlikni qo‘llab-quvvatlash muhim vazifa sanaladi. Psixo-emotsional o‘zgarishlar yuqumli kasalliklarning deyarli barchasida kuzatiladi. Asosiy psixologik muammolar: qo‘rquv, stigma, ijtimoiy izolyatsiya, depressiya, o‘z joniga qasd fikrlari. Misol uchun bemor kasalligini boshqalardan yashiradi, ijtimoiy qo‘llabquvvatlash yo‘qligi sababli ruhan tushkunlikka tushadi. Stigmatizatsiya va uning oqibatlari. Stigmatizatsiya – bu kasallikka chalingan odamni jamiyat rad etishi, undan qo‘rqish,



yomon ko'rish. Buning oqibatida o'ziga ishonch yo'qoladi, davolanishdan bosh tortish, o'z joniga qasd qilish xavfi ortadi.